O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

# JIZZAX VILOYATIDA
# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma’lumot***
*2025- yil yanvar*

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi***
*Тел. 72-221-51-26*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari**
**o'sish sur'atlari** (*2025- yil yanvar oyi, foizda*)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 691 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o‘sish sur’ati dinamikasi** *(yanvar, mlrd so‘mda)*




So‘nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘sish sur’ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 128,8 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari, oylar kesimida**
(*2024- 2025- yillar, foizda*)




2025- yilning yanvar oyida o‘sish sur’ati 110,4 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 709,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 110,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 48,5 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 105,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 400,9 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 110,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 234,9 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 110,8 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha chakana savdo hajmi va o‘sish sur’atlari**

(*2025- yil yanvar oyi*)

| | **Jami, mlrd so‘m *** | **2024- yil yanvar oyiga nisbatan, *foizda*** |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **709,5** | **110,4** |
| Jizzax sh | 184,3 | 112,4 |
| tumanlar : | - | |
| Arnasoy | 20,2 | 104,4 |
| Baxmal | 39,3 | 109,8 |
| G‘allaorol | 68,3 | 111,6 |
| Sh Rashidov | 82,7 | 111,2 |
| Do‘stlik | 36,1 | 108,9 |
| Zomin | 84,0 | 110,2 |
| Zarbdor | 41,9 | 106,4 |
| Mirzacho‘l | 20,7 | 110,4 |
| Zafarobod | 18,3 | 105,2 |
| Paxtakor | 44,9 | 111,0 |
| Forish | 24,6 | 111,3 |
| Yangiobod | 8,6 | 107,8 |

** – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda;*

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Jizzax shahri (112,4 %), G‘allaorol (111,6 %) va Forish (111,3 %) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

*(Ulushi, foizda)*




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 27,2 % bilan 184,3 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,3 % bilan 8,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o‘sish kuzatildi.



***Hajmi, mlrd. so‘m***



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 635,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,4 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| 107,6 % | Zomin |
| 108,7 % | Do‘stlik |
| 110,7 % | Paxtakor |
| 112,6 % | Sh.Rashidov |
| 114,8 % | Jizzax sh. |
| 115,8 % | G‘allaorol |

## Yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 5,3 % ga o‘sdi va 38,1 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,8 % ulushiga to‘g‘ri keldi.



| | |
|---|---|
| 145,0 % | Zafarobod |
| 150,0 % | Do‘stlik |
| 166,5 % | Zarbdor |
| 2,3 m. % | Yangiobod |
| 5,9 m. % | Baxmal |
| 6,4 m. % | Forish |
| 19,7 m. % | Mirzacho‘l |

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Sh.Rashidov (99,7 %), Paxtakor (99,5 %) va Zarbdor (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (18,9 %), Mirzacho‘l (11,0 %), Jizzax shahri (7,4 %) va baxmal (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.






**AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI**

(Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda)*

| | |
|---|---|
| Jizzax shahri | 931,9 |
| Arnasoy | 410,8 |
| Baxmal | 228,2 |
| G‘allaorol | 361,8 |
| Sh.Rashidov | 336,0 |
| Do‘stlik | 512,0 |
| Zomin | 462,2 |
| Zarbdor | 438,3 |
| Mirzacho‘l | 370,5 |
| Zafarobod | 337,4 |
| Paxtakor | 549,7 |
| Forish | 248,4 |
| Yangiobod | 286,5 |

2025- yilning yanvar oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 466,0 ming so‘m (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 108,1 %)ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (931,9 ming so‘m), Paxtakor (549,7 ming so‘m) va Do‘stlik (512,0 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’atlari** (2025- yil yanvar), *foizda*



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo oʻrinlari, turgʻun savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va oʻsish sur'atlari**
(2025- yil yanvar)

| | Jami, mlrd. soʻm | 2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **234,9** | **110,8** |
| Jizzax sh | 58,8 | 119,7 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 0,2 | 130,7 |
| Baxmal | 19,1 | 101,5 |
| Gʻallaorol | 35,8 | 126,7 |
| Sh Rashidov | 11,5 | 70,3 |
| Doʻstlik | 13,6 | 111,8 |
| Zomin | 30,4 | 114,4 |
| Zarbdor | 19,3 | 108,6 |
| Mirzachoʻl | 10,2 | 96,9 |
| Zafarobod | 0,0 | 0,0 |
| Paxtakor | 24,1 | 114,1 |
| Forish | 9,2 | 103,9 |
| Yangiobod | 2,7 | 117,2 |

** – xoʻjalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qoʻshmagan holatda;*

*– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xoʻjaligida oʻz kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.*

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari,** foizda
(2025- yil yanvar)




**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,** *mlrd so'm (2025- yil yanvar)*




Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 234,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 115,2 mlrd so'mni (127,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 119,7 mlrd so'mni tashkil etdi (106,5 %).

2025-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 115,2 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (50,2 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**
**50,2** *mlrd so‘m*

43,6 %

**Non va non mahsulotlari**
**15,0** mlrd so‘m

13,0 %

**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, guruch va boshqalar)
**7,9** mlrd so‘m

6,9 %

**Tovuq go‘shti**
**5,0** mlrd so‘m

4,3 %

**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yongoq, bodom, pista va boshqalar)
**6,7** mlrd so‘m

5,8 %

**Tuxum**
**5,0** mlrd so‘m

4,3 %

**Ziravorlar**
**6,6** mlrd so‘m

5,7 %

**Sut va sut mahsulotlari**
**6,0** mlrd so‘m

5,2 %

**Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak**
**2,9** mlrd so‘m

2,5 %

**Tuzlamalar**
**4,8** mlrd so‘m

4,2 %

**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari**
**0,3** mlrd so‘m

0,3 %

**Nooziq-ovqat tovarlar**
**4,8** mlrd so‘m
4,2 %

2025- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 119,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 92,8 mlrd so‘m, qo‘y va echkilar – 25,1 mlrd. so‘mni, otlar – 1,5 mlrd so‘mni, parrandalar – 0,3 mlrd so‘mni tashkil qildi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

**2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar**
**48,8 mlrd so‘m**

40,6 %

**1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar**
**22,1 mlrd so‘m**

18,5 %

**1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar**
**21,9 mlrd so‘m**

18,3 %

**Qo‘ylar**
**21,4 mlrd so‘m**

17,9 %

**Otlar**
**1,5 mlrd so‘m**

1,3 %

**Echkilar**
**3,7 mlrd so‘m**

3,1 %

**Kurka, o‘rdak, g‘oz**
**0,2 mlrd so‘m**

0,2 %

**Tovuqlar**
**0,1 mlrd so‘m**

0,1 %

**Quyonlar**
**0,0 mlrd so‘m**

0,0 %

**Qushlar**
**0,0 mlrd so‘m**

0,0 %



# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat koʻrsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

**Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va oʻsish sur'atlari** (2025- yil yanvar)

| | Jami mlrd soʻm * | 2024- yil yanvar oyiga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **355,7** | **113,5** |
| Jizzax sh | 10,8 | 116,5 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 0,1 | 105,0 |
| Baxmal | 0,7 | 105,4 |
| Gʻallaorol | 1,3 | 107,5 |
| Sh Rashidov | 4,2 | 107,8 |
| Doʻstlik | 0,6 | 112,3 |
| Zomin | 4,4 | 106,7 |
| Zarbdor | 0,8 | 109,5 |
| Mirzachoʻl | 0,3 | 116,6 |
| Zafarobod | 0,4 | 112,9 |
| Paxtakor | 1,0 | 112,6 |
| Forish | 0,2 | 113,3 |
| Yangiobod | 0,3 | 101,0 |

** – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash boʻyicha oʻtkazilgan kuzatuvlar natijalarini qoʻshgan holda;*

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 355,7 mlrd soʻmga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

# Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

| | **Hajmi,** mlrd so‘m | **Ulushi,** *foizda* |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **496,2** | **75,1** |
| Jizzax sh | 229,8 | 89,5 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 0,3 | 104,3 |
| Baxmal | 166,7 | 59,3 |
| G‘allaorol | 47,2 | 156,1 |
| Sh.Rashidov | 16,8 | 28,0 |
| Do‘stlik | 0,2 | 104,3 |
| Zomin | 31,1 | 110,0 |
| Zarbdor | 0,0 | 104,4 |
| Mirzacho‘l | 1,1 | 104,3 |
| Zafarobod | 0,1 | 104,3 |
| Paxtakor | 0,7 | 104,3 |
| Forish | 2,1 | 107,9 |
| Yangiobod | 0,1 | 104,3 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (229,8 mlrd so‘m), Baxmal (166,7 mlrd so‘m) va G‘allaorol (47,2 mlrd so‘m) ) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. *(mlrd so‘m)*




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari)* 496,2 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 75,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 315,6 mlrd so‘m (o‘sish sur’ati – 89,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 167,2 mlrd so‘m (o‘sish sur’ati – 56,3 %)ni tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur’atlari, *foizda*



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki oʻz foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga oʻzgartirmagan holda joʻnatilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq toʻlanadigan yoki toʻlanmaganligidan qatʼi nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, *mlrd soʻmda*




Viloyat boʻyicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 436,7 mlrd soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 18,7 % ga oʻsdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi




Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 409,6 mlrd soʻmni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga toʻgʻri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,8 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari
*(2025- yil yanvar)*

| | Jami mlrd so‘m * | 2024- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **436,7** | **118,7** |
| Jizzax sh | 222,1 | 119,8 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 0,8 | 116,0 |
| Baxmal | 6,6 | 106,9 |
| G‘allaorol | 19,3 | 149,8 |
| Sh Rashidov | 30,0 | 107,8 |
| Do‘stlik | 23,4 | 106,7 |
| Zomin | 66,3 | 136,7 |
| Zarbdor | 6,0 | 102,4 |
| Mirzacho‘l | 1,2 | 106,0 |
| Zafarobod | 3,0 | 103,2 |
| Paxtakor | 4,6 | 105,5 |
| Forish | 23,1 | 101,9 |
| Yangiobod | 2,2 | 101,3 |

** – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda;*

2025- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 725 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar G‘allaorol (149,8 %) viloyati, Zomin (136,7 %) va Jizzax shahri (119,8 %) viloyatida kuzatildi.